

## TASVIRIY SAN'AT ASARLARIGA MUALLIFLIK HUQUQI: NAZARIY-HUQUQIY ASOSLAR VA O'ZBEKISTON QONUNCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

**Xudoyorova Dilorom Husen qizi**

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

ORCID: 0000-0001-9802-0699

E-mail: [diloromsulkhiddinova@gmail.com](mailto:diloromsulkhiddinova@gmail.com)

Tel: +99894-340-80-08

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20039773>

**Annotatsiya.** Maqolada O'zbekistonda tasviriy san'at asarlariga nisbatan mualliflik huquqi institutining nazariy-huquqiy asoslari, milliy va xorijiy qonunchilikning qiyosiy tahlili hamda raqamli muhitdagi yangi muammolar tadqiq etilgan. Fransiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, AQSh va Yevropa Ittifoqi tajribasi asosida milliy huquqiy tizimda mavjud bo'lmagan zamonaviy huquqiy institutlar aniqlanib, ularni qonunchilikka joriy etish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan.

**Tayanch so'zlar:** tasviriy san'at, mualliflik huquqi, droit de suite, sun'iy intellekt, NFT, intellektual mulk, qonunchilikni takomillashtirish.

Tasviriy san'at insoniyat tsivilizatsiyasining eng qadimiy ifoda shakllaridan biri bo'lib, u nafaqat madaniy meros, balki bugungi kunda iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan ulkan sohani tashkil etadi. Butunjahon intellektual mulk tashkilotining 2024-yilgi hisobotiga ko'ra, jahon bo'yicha mualliflik huquqi obyektlarining iqtisodiy aylanmasi 8,7 trillion AQSh dollaridan oshib, tasviriy san'at va san'at bozori ulushi 67 milliard dollarni tashkil etgan. Ushbu raqamlar mualliflik huquqi institutining yuqori darajadagi iqtisodiy salohiyatini namoyon etadi va uning huquqiy tartibga solinishi sifatining mamlakatlar madaniy-iqtisodiy taraqqiyotiga bevosita ta'sirini ko'rsatadi. O'zbekistonda 2006-yilda qabul qilingan "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonun mazkur sohaning asosiy hujjati bo'lsa-da, uning tasviriy san'at sohasidagi zamonaviy muammolarni qamrab olishdagi cheklanganligi va xalqaro standartlarga to'liq mos kelmasligi milliy qonunchilikni takomillashtirish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Tasviriy san'at asarlariga nisbatan mualliflik huquqi instituti uzoq tarixiy evolyutsiyaning natijasi bo'lib, uning ildizlari 1710-yilgi Anne Statutidan boshlanadi. Tasviriy san'at sohasidagi birinchi maxsus qonun - 1734-yilgi Engravers' Copyright Act - mashhur ingliz rassomi Uilyam Hogartning shaxsiy tashabbusi bilan qabul qilingan va keyinchalik mualliflarning huquqlarini xalqaro miqyosda himoya qilish g'oyasi 1886-yilgi Bern konventsiyasi bilan amaliy ifodasini topdi. Bugungi kunda Bern konventsiyasi 182 davlatni birlashtirgan universal hujjatdir va u tasviriy san'at asarlarining mualliflik huquqi obyekti sifatidagi maqomini xalqaro huquqning fundamental me'yori sifatida mustahkamlagan. Ayni paytda, mualliflik huquqi institutining nazariy asoslari to'rt asosiy yondashuvga tayanadi: tabiiy huquq nazariyasi, mehnat-mukofot doktrinasi, shaxsiyat nazariyasi va iqtisodiy stimulyatsiya kontseptsiyasi. Rus huquqshunosi A.P. Sergeev qayd etganidek, mualliflik huquqi - bu "ijodiy mehnat natijasida yaratilgan asarlarga nisbatan paydo bo'ladigan, ham mulkiy, ham shaxsiy nomulkiy xarakterga ega bo'lgan subyektiv huquqlar tizimidir", va aynan bu dual tabiat tasviriy san'at sohasida o'ziga xos huquqiy yondashuvni talab qiladi.

*Tasviriy san'at asari - bu muallifning ijodiy mehnati natijasida yaratilgan, vizual idrok orqali estetik ta'sir o'tkazadigan, originallikka ega bo'lgan, rangtasvir, haykaltaroshlik, grafika, fotografiya, qo'llaniladigan san'at, dizayn yoki raqamli formatdagi (shu jumladan, NFT va sun'iy intellekt yordamida insonning sezilarli ijodiy hissasi bilan yaratilgan) tasviriy ifoda shakli bo'lib, mualliflik huquqining mustaqil obyekti hisoblanadi. Mazkur ta'rif zamonaviy raqamli muhitning yangi shakllarini qamrab oladi va xalqaro standartlarga muvofiqlashtirilgan tarzda shakllantirilgan, bu esa milliy huquqshunoslik nazariyasini boyitishga qaratilgan amaliy hissadir.*

Qiyosiy-huquqiy tahlil natijasida shu narsa aniqlandiki, O'zbekiston Respublikasining mualliflik huquqi qonunchiligi xalqaro standartlarga umumiy ravishda muvofiqlashtirilgan, biroq tasviriy san'at sohasiga oid o'n yetti zamonaviy huquqiy institut milliy qonunchilikda umuman mavjud emas. Ushbu institutlar mualliflarning iqtisodiy va shaxsiy huquqlarini real himoya qilish uchun zarur bo'lgan, biroq O'zbekiston huquqiy maydonidan tashqarida qolgan xalqaro tajribaning muhim yutuqlari hisoblanadi. Ularning shartnomaviy munosabatlar yo'nalishida eng e'tiborli misollari Germaniyaning Mualliflik huquqi to'g'risidagi qonunida (UrhG) mustahkamlangan "adolatli kompensatsiya" tamoyili (§ 32), "bestseller" qoidasi (§ 32a) va foydalanuvchining muallifga axborot berish bo'yicha majburiyatidir (§ 32d), shuningdek, AQSh qonunchiligida belgilangan "termination of transfers" instituti bo'lib, u muallifga huquqlarni o'tkazgandan keyin 35 yil o'tgach ularni qaytarib olish imkoniyatini beradi. Bu institutlarning umumiy mantig'i — muallifni shartnomaviy munosabatlardagi iqtisodiy jihatdan zaifroq tomon sifatida tan olib, unga qonun darajasida himoya kafolatlarini berishdir, holbuki O'zbekiston Qonunining 36–43-moddalari ushbu zaruratni nazarda tutmaydi.

Tasviriy san'at sohasining o'ziga xos institutlaridan biri - mualliflarning "ergashma huquqi" (droit de suite) - Yevropa Ittifoqining 2001/84/EC sonli Direktivasi orqali xalqaro miqyosda bir tizimga keltirilgan va Frantsiyaning ADAGP, Buyuk Britaniyaning DACS singari maxsus jamoa boshqaruv tashkilotlari tomonidan amalda muvaffaqiyatli boshqarib kelinmoqda. Faqat ADAGP 2023-yilda 14,2 million yevro, DACS esa 11,8 million funt royalti yig'ib, mualliflarga taqsimlagan, bu institutsional mexanizmning real samaradorligini ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasining "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risidagi Qonunining 23-moddasida ergashma huquq formal jihatdan mustahkamlangan bo'lsa-da, uning amaliy mexanizmi progressiv royalti shkalasi, san'at bozori subyektlarining xabardor qilish va to'lash majburiyatlari, muallifning sotuvchilardan ma'lumot olish huquqi va, eng muhimi, royaltini yig'uvchi maxsus tashkilot qonunda mavjud emas. Bu esa yaxshi niyat bilan kiritilgan normaning ishlamasligiga olib kelgan: mamlakatda yaratilgan mingdan ortiq tasviriy san'at galereyasi va kimoshdi savdosi platformalarining hech biri amalda droit de suite to'lovini amalga oshirmaydi.

Mualliflik huquqi institutining samarali ishlashida mas'uliyatga tortish mexanizmlari ham hal qiluvchi ahamiyatga ega. AQSh qonunchiligida amal qiluvchi "statutory damages" instituti (17 U.S.C. § 504(c)) huquq egasiga haqiqiy zararni isbotlash o'rniga qonun bilan belgilangan miqdorda kompensatsiya talab qilish imkoniyatini beradi, bu esa sud jarayonida muallifni ortiqcha isbot mehnatidan xalos qiladi va huquqbuzilishlarning oldini olishga yo'naltirilgan kuchli iqtisodiy stimulni yaratadi. Yevropa Ittifoqining 2004/48/EC Direktivasi shunga o'xshash tarzda litsenziya haqining ikki barobari miqdoridagi avtomatik kompensatsiyani belgilaydi. Texnologik himoya choralari (TPM) bo'yicha javobgarlik va internet platformalari

uchun *"notice and takedown"* tartibining qonun darajasida belgilanishi raqamli muhitda mualliflik huquqini himoya qilishning standart vositalari hisoblanadi, biroq bularning hech biri O'zbekiston qonunchiligida o'z ifodasini topmagan. Garchi 2025-yil 13-may O'RQ-1080-sonli Qonun bilan jinoiy javobgarlik kuchaytirilgan bo'lsa-da, fuqaroviy-huquqiy himoya vositalarining zamonaviylashtirilishi keyingi qadamni talab qiladi.

Raqamli muhit mualliflik huquqi institutining konseptual asoslarini qayta baholashga majbur etmoqda. Sun'iy intellekt yordamida yaratilgan tasviriy asarlar bo'yicha AQSh sud amaliyotida shakllangan ikki muhim ish - Andersen v. Stability AI (2023) va Thaler v. Perlmutter (2023) - bu sohada xalqaro miqyosda hukmron bo'lib borayotgan yangi yondashuvni shakllantirgan: faqat insonning sezilarli ijodiy hissi bo'lgan AI-asarlarigina mualliflik huquqi himoyasiga olinishi mumkin, to'liq AI tomonidan generatsiya qilingan kontent esa public domain ga tegishlidir. Yevropa Ittifoqining 2024-yilgi sun'iy intellekt to'g'risidagi Reglamentining (AI Act) 50-moddasi esa AI tomonidan yaratilgan kontentning majburiy markirovkasini belgilaydi. NFT (Non-Fungible Tokens) sohasida Hermès v. Rothschild (2023) ishi raqamli aktivlarga an'anaviy intellektual mulk qonunchiligining qo'llanilishini tasdiqladi, biroq O'zbekiston huquqiy maydonida na sun'iy intellekt asarlarining maqomi, na NFT bilan bog'liq munosabatlar, na blokcheyn texnologiyalari yordamida amalga oshiriladigan muomalalar tartibga solinmagan. Madaniy meros sohasida ham xuddi shunday vaziyat - Yevropa Ittifoqining 2012/28/EU Direktivasi tomonidan tartibga solingan "egasi noma'lum bo'lgan asarlar" (orphan works) instituti, out-of-commerce works tartibi va Public Lending Right (kutubxona huquqi) tizimi O'zbekistonda mavjud emas, bu esa kutubxonalar va muzeylarning raqamlashtirish faoliyatini huquqiy noaniqlikka tushiradi.

*"Tasviriy san'at mualliflik huquqlarini boshqarish jamiyati"* deb nomlanuvchi mustaqil jamoa boshqaruv tashkilotini tashkil etish va uning huquqiy maqomini Qonunda alohida bob sifatida belgilash zarur. Ushbu jamiyat mualliflar nomidan litsenziyalar berishi, royalti yig'ishi va taqsimlashi, xorijiy CMO lar bilan o'zaro shartnomalar tuzishi hamda droit de suite mexanizmini amaliy boshqarishi lozim, bu esa mamlakatda hozirgacha shakllanmagan butun bir institutsional infratuzilmani yaratadi.

Droit de suite institutining real ishlashi uchun Qonunda progressiv shkala asosida qaytadan tahrirlash taklif etiladi. Yevropa Ittifoqi tajribasiga moslashtirilgan shkala 3 million so'mgacha bo'lgan sotuvlardan 5%, 3–25 million oraliqda 4%, 25–100 million oraliqda 3%, 100–350 million oraliqda 1% va 350 million so'mdan ortiq sotuvlardan 0,25% royalti ko'zda tutib, bir asar uchun maksimal royalti chegarasini 150 million so'm darajasida belgilaydi. Shu bilan birgalikda, kimoshdi savdosi tashkilotlari, san'at galereyalari va dilerlarning sotuvdan keyin 30 kun ichida muallifga xabar berish va royalti to'lash bo'yicha majburiyatlarini qonunda mustahkamlovchi modda hamda muallifning sotuvchilardan o'tgan uch yil ichidagi sotuvlar to'g'risida ma'lumot olish huquqini ta'minlovchi modda kiritilishi kerak. Mazkur uch elementning birgalikdagi joriy etilishi progressiv royalti, sotuvchining majburiyatlari va muallifning ma'lumot olish huquqi droit de suite institutini formal normadan amalda ishlaydigan mexanizmga aylantirish imkonini beradi.

Raqamli muhit muammolarini hal qilish uchun avvalo Qonunga sun'iy intellekt va mualliflik huquqi munosabatlarini tartibga soluvchi norma kiritish zarur: mualliflik huquqi himoyasi insonning ijodiy faoliyati natijasi bo'lgan asarlarga nisbatan amal qilishi, faqat sun'iy intellekt tomonidan inson aralashuvisiz yaratilgan asarlar mualliflik huquqi obyektini

hisoblanmasligi va sun'iy intellekt yordamida insonning sezilarli ijodiy hissasi bilan yaratilgan asarlar himoyalaniishi mumkinligi belgilanmog'i lozim. Shuningdek, AI tizimlarini o'qitish uchun mualliflik huquqi obyektlaridan foydalanishni tartibga soluvchi modda va AI tomonidan yaratilgan kontentning majburiy markirovkasini belgilovchi maxsus modda Yevropa Ittifoqining AI Akti tajribasi asosida ishlab chiqilishi mumkin. NFT va blokcheyn-asarlari uchun Qonunga "Raqamli muhitda mualliflik huquqi" deb nomlanuvchi yangi bob kiritilishi taklif etiladi, unda NFT ga egalik va mualliflik huquqi o'rtasidagi farq, smart-contract orqali avtomatik royalti to'lash mexanizmlari va raqamli aktivlar bilan bog'liq nizolarning yurisdiksiya masalalari aniqlik bilan belgilanmog'i kerak.

Mas'uliyat sohasida AQSh tajribasidan keltirilgan "statutory damages" instituti milliy qonunchilikka quyidagicha kiritilishi mumkin: huquq egasi haqiqiy zararni isbotlash o'rniga 7,5 million so'mdan 75 million so'mgacha (mualliflik huquqi qasddan buzilgan hollarda - 300 million so'mgacha) miqdorida kompensatsiya talab qilishi va sud kompensatsiya miqdorini buzilish darajasi va xarakteridan kelib chiqib belgilashi belgilanmog'i lozim. Texnologik himoya choralari chetlab o'tish bo'yicha javobgarlik va internet platformalari uchun "notice and takedown" tartibining qonunlashtirilishi raqamli muhitda mualliflik huquqi himoyasini xalqaro standartlarga moslashtiradi. Madaniy meros sohasida esa egasi noma'lum bo'lgan asarlar uchun maxsus reestr tizimini va kutubxona huquqi (Public Lending Right) institutini joriy etish mamlakatning tarixiy madaniy boyligini huquqiy noaniqlikdan xalos etishga va illyustratorlar, badiiy albomlar mualliflari uchun yangi daromad manbasini yaratishga xizmat qiladi.

Ushbu islohotlarning amalga oshirilishi uchun amaliy zamin allaqachon shakllangan: 2025-yil 13-may O'RQ-1080-sonli Qonun bilan intellektual mulk huquqlarini buzganlik uchun jinoiy javobgarlik kuchaytirilgan va AQSh Savdo vakilligining 2024-yilgi "Special 301 Report" hisobotida O'zbekiston intellektual mulk himoyasidagi yutuqlar uchun "Watch List" ro'yxatidan chiqarilgan. Biroq mas'uliyat sohasidagi yutuqlar moddiy huquq normalarining takomillashtirilmasligi sharoitida to'liq samara bera olmaydi - chunki kuchli sanksiyalar tizimi mualliflarning aniq belgilangan moddiy huquqlarini himoya qilishga xizmat qilishi kerak. Aynan shu sababdan tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan o'n yetti taklif yagona maqsadga - milliy qonunchilikning xalqaro standartlarga muvofiq, tizimli va izchil takomillashtirilishiga bo'ysundirilgan.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ko'p qirralidir. Ular, eng avvalo, qonun ijodkorligida Oliy Majlisda "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonunni yangi tahrirda qabul qilish yoki unga keng qamrovli o'zgartishlar kiritish bo'yicha qonun loyihalarini ishlab chiqishda foydalanilishi mumkin. Sud va huquqni qo'llash amaliyotida tadqiqot xulosalari mualliflik huquqi nizolarini ko'rib chiqishda nazariy va metodologik tayanch sifatida xizmat qilishi mumkin. Ta'lim jarayonida Toshkent davlat yuridik universiteti va boshqa oliy ta'lim muassasalarining "Intellektual mulk huquqi", "Raqamli huquq" va "Xalqaro xususiy huquq" o'quv kurslari bo'yicha ma'ruzalar va seminarlarni boyitishda; davlat boshqaruvi va institutsional islohotlarda Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk markazi va Madaniyat vazirligi tomonidan tasviriy san'at sohasini huquqiy tartibga solish bo'yicha qarorlarni shakllantirishda; va nihoyat, xalqaro reytinglar va integratsiya jarayonlarida O'zbekistonning Global innovatsiyalar indeksidagi o'rnini yanada yaxshilash hamda mamlakatning xalqaro san'at bozoriga to'liq integratsiyalashishini ta'minlashda foydalanishi mumkin.

Yakunlash sifatida ta'kidlash kerakki, mazkur tadqiqot tasviriy san'at asarlariga nisbatan mualliflik huquqi institutining O'zbekistondagi rivojlanishi bo'yicha keng qamrovli ilmiy asoslarni shakllantirgan dastlabki yirik tadqiqotlardan biridir. Ishlab chiqilgan o'n yetti taklif Fransiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, AQSh va Yevropa Ittifoqining yetuk huquqiy tajribasiga, sud amaliyotidagi muhim ishlarga (Andersen v. Stability AI, Thaler v. Perlmutter, Hermès v. Rothschild) hamda jahonga taniqli huquqshunoslarning ilmiy qarashlariga to'liq asoslangan. Mualliflik huquqi instituti - bu nafaqat huquqiy mexanizm, balki millat madaniy salohiyatining iqtisodiy realizatsiyasini ta'minlovchi muhim vosita ekanligini hisobga olganda, taklif etilgan islohotlarning amalga oshirilishi tasviriy san'atkorlarning huquqlarini real himoya qilish, mamlakatning xalqaro san'at bozoriga to'liq integratsiyalashishi va milliy madaniyatning iqtisodiy rivojlanishi yo'lida muhim qadam bo'lishini taxmin qilish mumkin.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining 2006-yil 20-iyuldagi O'RQ-42-sonli Qonuni.
2. "Ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 2025-yil 13-maydagi O'zbekiston Respublikasining O'RQ-1080-sonli Qonuni.
3. Berne Convention for the Protection of Literary and Artistic Works, 9 September 1886 (Paris Act, 1971).
4. Directive 2001/84/EC of the European Parliament and of the Council of 27 September 2001 on the resale right for the benefit of the author of an original work of art.
5. Directive 2012/28/EU of the European Parliament and of the Council of 25 October 2012 on certain permitted uses of orphan works.
6. Regulation (EU) 2024/1689 of 13 June 2024 laying down harmonised rules on artificial intelligence (AI Act).
7. Gesetz über Urheberrecht und verwandte Schutzrechte (UrhG, Germaniya), 1965 yil 9-sentabr (oxirgi tahrir – 2024).
8. 17 U.S. Code – Copyrights, §§ 101–1401.
9. Andersen v. Stability AI Ltd., 700 F. Supp. 3d 853 (N.D. Cal. 2023).
10. Thaler v. Perlmutter, 687 F. Supp. 3d 140 (D.D.C. 2023).
11. Hermès International v. Rothschild, No. 22-cv-384 (S.D.N.Y. 2023).
12. Сергеев А.П. Право интеллектуальной собственности в Российской Федерации: учебник. – 5-е изд. – М.: Проспект, 2022.
13. Ricketson S., Ginsburg J.C. International Copyright and Neighbouring Rights: The Berne Convention and Beyond. 2nd Edition. – Oxford University Press, 2022.
14. Goldstein P., Hugenholtz B. International Copyright: Principles, Law, and Practice. 4th Edition. – Oxford University Press, 2019.
15. WIPO. World Intellectual Property Indicators 2024. – Geneva: WIPO, 2024.
16. Office of the United States Trade Representative. 2024 Special 301 Report. – Washington, D.C.: USTR, April 2024.
17. Oqyulov O. Intellektual mulk huquqi: darslik. – T.: TDYU nashriyoti, 2020.
18. Raxmanov A.R. O'zbekiston Respublikasida intellektual mulk huquqi: o'quv qo'llanma. – T.: Adolat, 2019.